

**Jahon adabiyotshunosligida va o'zbek adabiyotida ayrim tabiat
ramzlarining qo'llanilishi**

Raxima SHARIPOVA,

NavDPU O'zbek tili va adabiyoti kafedrası

katta oqituvchisi f.f.f.d (PhD)

sharipovaraxima801@gmail.com

Annatsiya: *Ushbu maqolada jahon adabiyotshunosligida va o'zbek adabiyotshunosligida tabiat ramzlarining ko'lami judaham samarali ekanligi, hamda adabiyotshunoslikda tabiat ramzlariga bag'ishlangan she'rlar, ularning ramziy ma'nolari, obrazlilik darajasi, poetikasi, ijodkor uslubi singari masalalar doimiy e'tiborni tortib kelganligi izohlanadi.*

Kalit so'zlar: *ramzlar, istioraviy, timsoliy, shamol, bulut, yomg'ir, qor, inson ruhiyati, sovuq, ayoz, poetikasi, ijodkor, umumbashariy va milliy.*

Jahon adabiyotshunosligida tabiat ramzlariga bag'ishlangan she'rlar, ularning ramziy ma'nolari, obrazlilik darajasi, poetikasi, ijodkor uslubi singari masalalar doimiy e'tiborni tortib kelmoqda. Jumladan, she'riyatda shamol, bulut, yomg'ir, qor tasviri peyzaj lirikasidan tashqari lirik qahramon ruhiyatini ifoda etishi, turli timsoliy ma'nolarni bildirishi kabi qator muammolarni yaxlit holda tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo adabiyotshunosligida tabiat ramzlarining istioraviy, semantik ma'nolari, inson ruhiyati, tuyg'u-kechinmalari ifodachisi sifatida ifodalagan umumbashariy va milliy jihatlar, peyzaj lirikasining bir muhim qismi ekanligini aniqlash, ularning yil fasllari bilan bog'liq tomonlarini tekshirish kabi masalalar bo'yicha muayyan izlanishlar olib borilmoqda. Shu ma'noda lirikada katta o'ringa ega bo'lgan tabiat ramzlari tasviridagi o'ziga xosliklar, kelib chiqish asoslari, timsoliy ma'nolari, ular bilan yonma-yon keladigan lirik obrazlar mohiyatini ilmiy-nazariy jihatdan o'rganishga alohida diqqat qaratilmoqda. Bulut, chaqmoq, yomg'ir kabi tabiat ramzlari o'zbek mumtoz she'riyatida inson turli holatdagi kayfiyatini bildirib kelishi;

She'riyatda tabiat ramzlari hayotiy mazmun-mohiyat kasb etadi. Shu jihatdan shamol, bulut, yomg'ir, qor singari tabiat ramzlariga bag'ishlangan she'rlar o'ziga xos badiiy tizimni tashkil etadi. Adabiyotshunoslik ilmida bu obrazlar mohiyatini ochib berish yo'nalishida bir qator ishlar amalga oshirilgan. Xususan, rus adabiyotshunosligida bu borada ancha yutuqlarga erishilganligini ta'kidlash zarur.

Ye.Shoxina yil fasllarining she'riyatdagi ma'nolarini o'rganar ekan, ular bilan bog'liq tabiat ramzlariga ham e'tibor qaratadi. Olimaning fikricha, R.A.Vyazemskiyning «Birinch qor» she'rida shoirning istak-intilishlari aks etgan. Ayni choqda, bu obraz sovuq va ayoz bilan birgalikda mahzun kayfiyatni ham ifodalaydi. Uning fikricha, sovuq, ayoz, qor – uchulasi birga o'lim belgilarini bildirib keladi. E'tibor berilsa, bunda bir qor tasviri orqali lirik qahramon kayfiyatidagi ikki kontrast holat ifoda etilgan. Yoki hayotning ma'nosi va insonning yashashdan maqsadi haqidagi falsafiy qarashlar Pushkin

davri shoirlarining kuz haqidagi asarlarida ifoda etilgan. Olimaning fikricha, kuz manzarasi «zerikarli», unda xotiralar qayta tiklanadi. Shuning uchun kuzga nisbatan «ma'yus», «zerikarli» epitetlar ko'p qo'llanadi. Bu faslning ob-havo sharoitlari bilan ham bog'liq: doimiy tuman tushishi, yengil yomg'ir yog'ishi, do'lning bo'ron va kuchli shamollarni boshlab kelishi kabilarda ko'rinadi. Demak, Shoxina tabiat ramzlarini lirik qahramon kayfiyatiga bog'lab ifoda etadi.

A.G.Almuxametova, Boris Pasternak she'rlaridagi yomg'ir obrazini maxsus o'rgangan. Uning fikricha, tabiatda kuchli yomg'irlar momaqaldirroqqa aylanadi; shamol, tabiiy kuchlar g'alayonini yuzaga keltiradi. Yomg'ir dunyoni tozalash uchun osmon xudosi yuborgan degan qadimiy qarashlarga ham bog'langan. Pasternak she'rlariga qadimgi slavyanlarning yomg'ir suvi haqidagi fikrlari singdirilgan: unga ko'ra, yomg'ir unumdorlik timsolidir. Shu bilan birga yomg'ir she'riyatda ruhiy ta'sir va poklanish ramzi sifatida talqin etiladi. U suvni tozalab beradi.

N.Morozovanning fikricha, birinchi qor go'zalligi, tabiatning sirli va mo'jizali hodisasi sifatida R.Vyazemskiy, A.Jemchujnikov, A.Bunin, I.Surikov singari XIX asr shoirlarini hayajonga solib kelgan. Rus she'riyatida R.Vyazemskiy haqli ravishda birinchi qor kuychisi sifatida tanilgan. Zero, qor yarim tundagi bulutli osmonning o'g'lidir, u kunduzgi tabiatning betakror jozibasini o'zida namoyon etadi. Yoki olim D.Samoylov asarlarini tahlil etar ekan, ularda birinchi qorni hissiy idrok etish yorqin namoyon bo'lganligini ta'kidlaydi. Ya'ni ilk qor tasviri lirik qahramonning ichki dunyosi bilan shu qadar uyg'un, u eng yaqin qarindosh bilan ko'rishishdek iliq tuyg'uni paydo qiladi.

Ma'lumki, Anna Axmatova juda murakkab davrda yashab, ijod etdi. Shoira she'riyati ramziy ifoda va obrazlarga boyligi bilan ajralib turadi. Shoira she'riyatidagi shamol obrazini o'rgangan V.Vilenkin bu obrazning ramziy ma'nolariga to'xtaladi. Binobarin, shamol timsoli orqali Anna Axmatova Vatan urushidan oldingi va urush yillaridagi butun mamlakatni qamrab olgan misli ko'rilmagan dahshatlarni aks ettirgan. Demak, xalqning dardlarini ochiq aytish mushkul bo'lgan o'sha yillarda otashqalb shoira shamol obraziga murojaat etgan. Olim yana bir jihatga alohida e'tibor qaratadi: Anna Axmatovanning so'nggi yillar lirikasida shamol achchiq taqdir yo'laklarida harakat qilayotgan inson obrazini ifodalab kelgan.

T.Shkuratova poetik simvollarni o'rganar ekan, bu timsollar romantik she'riyatga xosligini ta'kidlaydi va tabiat hodisalari ham ramz bo'lib kelishini asoslab beradi.

Xitoy olimi Van Ventsyan rus va Xitoy poeziyasidagi tabiat obrazlarini qiyosiy o'rganar ekan, shamol va yomg'ir obrazlariga alohida to'xtaladi. Uning fikricha, o'tgan asrning birinchi o'n yilliklaridagi rus va Xitoy she'riyatida tez-tez uchraydigan va ahamiyatli bo'lgan bir qator tabiat obrazlar mavjud (masalan, yomg'ir, tuman, shamol, yorug'lik va zulmat...) Ikki xalq lirikasidagi bu obrazlar tarixiy vaziyatlarning mushtarakligi nuqtai nazaridan o'xshashdir. Olim fikrlarini davom ettirib, Xitoy she'riyatida yomg'ir qayg'u, mavhum tuyg'ularni ifodalab keladi. Rus she'riyatida esa davr voqeligidan kelib chiqib, ko'proq inqilobiy voqealar bilan uyg'un ma'nolarni ifodalagan. Ko'rinadiki, olim tabiat ramzlari tasvirida ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlarni ko'radi. Adabiyotshunosning shamol obrazi bilan bog'liq fikrlari ham e'tiborli. U.A.Blok

she'rlarini tahlil etar ekan, shamol shoir lirikasida muhim o'rin tutgan obrazlardandir. U o'zi bilan qorlarni, bulutlarni olib keladi. Guo Moruo lirikasida esa yomg'ir iliq va xursandchilik lahzalarini aks ettiradi. Xitoy she'riyatida, xususan, Guo Moruo she'rlarida izg'irin va kuchli shamol tabiatning fojiali surati deb talqin qilinadi. Shoir odamlar undan azoblanadi, deydi. Olim kuzatishlaridagi yana bir jihat diqqatga sazovor: u shamolning ham xillarini ajratadi, shimoliy-g'arbiy shamolni qishning, janubiy-sharqiy shamolni bahorning ramzi, deydi.

Ko'rinadiki, rus adabiyotshunosligida tabiat ramzlari va ularning she'riyatdagi ma'nolari ancha keng o'rganilgan.

O'zbek folklorshunosligi va adabiyotshunosligida tabiat ramzlari she'riyat misolida maxsus tadqiq etilmagan. Faqat muayyan davr she'riyati va muayyan ijodkor asarlari tahlili jarayonida shamol, bulut, qor, yomg'ir obrazlariga munosabat bildirilgan. Xalq lirikasi misolida tabiat ramzlarini tadqiq etgan folklorshunos olim A.Musaqulov bulut, yomg'ir, shamol, qor obrazlari mohiyatini yoritib bergan. Uning fikricha: «Jahondagi birinchi ayolning ismi Momo Havo (Eva) bo'lganligini eslaylik. Animizm barcha dinlar uchun xos belgi bo'lib, yunoncha – havo, shamol degan so'zdan olingan. Havo, ya'ni jon jon bilan, keyin bulutga qo'shilib ketadi.

Men o'lib tuproqda yotsam,
Har zamon o'tgin yorim
Etaging shamoli tegsa,
Oromlar olgay jonim

Qo'shiqdagi etak magiya qoidasiga ko'ra yorning o'ziga, etak shamoli uning tirikligiga ishoradir. Yer, suv, olov kultlarini jamlagan tabiat kultlari da shamol ham to'rtinchi unsur sifatida muhim o'rin tutadi». Olim shamol timsolini Momo Havo nomi bilan bog'laydi va uning tabiatdagi to'rtinchi unsur deb ataydi. Yoki olim fikrlarini davom ettirib yozadi:

Sabo bilan subhidam
Gul ochilar, yor-yor
Suylaganda og'zidan
Dur sochilar, yor-yor

An'anaga ko'ra subhidam – xosiyatli vaqt... Sabo hosildorlik kultidagi shamolning analogi. Shu sababli subhidamgi sabo gulga jon baxsh etadi – gul ochiladi». Bunda shamol obrazi hayotiy ma'no kasb etgan. Ya'ni tonggi shabada tabiatga jon kiritadi, uning esishi natijasida gullar ochiladi.

Ariq suvi oqadi
Jimir-jimir yor-yor
Uyda kelin ko'ngliga

Yog'ar yomg'ir yor-yor, – degan satrlarni tahlil etgan olim yozadi: «Qo'shiqdagi yomg'ir obrazini qayg'u ifodasi desak, katta xato bo'ladi. Xalq ijodida yomg'ir va shabnam xosiyatli hodisa, obi hayot darajasigacha ko'tarilgan. Qolaversa, kelinchakning ota-ona uydin yig'lab ketishi ayriqliq iztirobigina emas, to kuyovning uyiga borguncha yig'lab borishi marosimiy xarakterga ega bo'ladi». Demak, A.Musaqulov xalq

qo'shiqlaridagi yomg'irni xosiyatli hodisa deb hisoblaydi va unda marosimiy mazmunni ko'radi.

Mumtoz adabiyotdagi tabiat ramzlarining ma'nolari ham qator olimlar tomonidan muayyan ijodkorlar asarlari misolida yoritib berilgan. Akademik Aziz Qayumov Alisher Navoiyning «Layli va Majnun» dostonini tahlil qilar ekan, tabiat ramzlarining «hammasi ishq tug'yonlari natijasida yuzaga kelgan. Bu holatlar jinnilik, behush telbalik emas, balki ishq shamoli, to'foni, ishq selining inson jismi va aqlini qanday xarob qilajagining alomatlaridir» deya qayd etadi.

Yoki olim Furqatning:

Bulut qatra fishonu ruhafzo sabzalar xandon,

Arig'larning labida sabzakori bir chaman bo'lsa, – degan baytini tahlil qilar ekan, yozadi: «Bu misralarda Furqat tabiat tasvirining mohir musavviri' sifatida ko'rinadi. Qatra-qatra yomg'ir donalarini sho'xlik bilan sochayotgan oq bulutlar ko'k uzra uchadilar. Bu qatralardan hayot namini totgan sabzalar xandon tashlab kuladilar». Haqiqatan, ham Furqat she'rlarida tabiat tasviri alohida o'rin tutadi. U tabiatdagi har bir holatni, hodisani obrazlantirib, lirik qahramon qalbidagi iliq tuyg'ularni ta'sirchan ifodalab bergan.

Alisher Navoiy she'riyatidagi peyzajni o'rgangan olim A.Erkinov esa:

Qamar tig'idin sarsar andoq esib

Harki yerda tegsa pichoqdek kesib, –degan bayti haqida: «Sovuq shamol tekkan yerni pichoq kesgandek og'ritib o'tadi. Pichoq va uning kesgan vaziyati orqali shamolning sovuqligi uqtirilmoqda. Sovuq shamoldan hosil bo'ladigan og'riqni muallif «pichoq», «tig'» kabi so'zlar orqali oydinlashtirishga intilmoqdadir» – deb yozadi. Bunda sovuq shamol haqida fikr yuritilgan. Bulut haqida gapirar ekan, «Bulutning bahaybatligi kulrangda ekanligi muallifning hayoliga fil ko'rinishini keltirgan va u fikrlashda davom etib fillar Nil daryosida (Afrikadagi daryo) cho'milgan bo'lsalar kerak, shuning uchun ulardan suv tomchilari tomib turibdi, deydi. Bulutning yomg'ir yog'dirishiga asoslanib, u badanidan tomchilar oqib turgan filga o'xshatiladi» – deb yozadi.


«Esor subhidam ruhparvar nasim,

Topar jon yig'ochqa izomi ramim» baytida qo'llangan ruhparvar nasimni shunday izohlaydi: «Ruhbaxsh shamol» – subhidam – tong shamolidir. Tong havosi musaffoligi bilan ajralib turadi, shuning uchun muallif shamolni «subhidam» – tong payti bilan bog'laydi. Shoirning badiiy talqinida «ruhparvar nasim» sabab bo'lib, oqibatda «izomi ramim»ga jon kiradi. Adabiyotshunos bahor shamoliga alohida mazmun beradi: «Bahor tasvirida shamol orom yetkazuvchi, jon bag'ishlovchi sifatida talqin etiladi. Qayta tirilish ostida bunda bahordagi tabiatning uyg'onishi tushuniladi. Tirilish jarayoni, maysa, barglarning unib chiqishini amalga oshirishni Navoiy obrazli tarzda shamol zimmasiga yuklaydi. Demak, hazrat Navoiy she'riyatida shamol bahor timsoli bo'lib kelgan. Yoki olimning qor obrazi bilan bog'liq kuzatishlari ham e'tiborni tortadi:

«Qilib shoxini nastarin siym gun,

Kim ul siym atrofin aylab nigun

Bosib siym bo'lg'och garonbor ani,



Hamul shoxdekkim bosar qor ani.

Qorning shoxni qoplashi, mohiyatan shoxni egadi va bu o'rinda ham oqlikka ham, og'irlikka aloqali «siym» obrazi «qor» gacha qo'llanadi. An'anaga ko'ra, «siym» – kumush nastarin gulining istioralaridan biridir». Alisher Navoiy qorga nisbatan kumush istiorasini qo'llaydiki, bu zamonaviy she'riyatda ham an'anaviyligini saqlagan. Bulut tasviri bilan bog'liq tahlillarda ham ulug' Navoiyning tabiatning har bir hodisasi va holatini obrazlantirganligi ochib berilgan. Jumladan, A.Erkinov bu haqda yozadi: «Chaqmoq chaqib, yomg'ir yog'dirayotgan bulut na'ra tortayotgan yirtqich she'rga o'xshatiladi. ...Navoiy bahor tasvirini yaratishda, bulut to'g'risida gapirganida o'xshatishda fil, sher obrazlaridan foydalangan». Binobarin, mutafakkir ijodkorning bulutga nisbatan qo'llagan tashbehi – uni na'ra tortayotgan yirtqich sherga o'xshatishida hayotiy mazmun yashiringan.

Zamonaviy she'rshunoslikda ham tabiat ramzlariga turli munosabatlarni ko'rish mumkin. Jumladan, O.Sharafiddinov A.Oripov she'rlaridagi yomg'irning ramziy ma'noga egaligini quyidagicha asoslaydi: «A.Oripov pozitsiyasining kuchi, sehri shundaki, u sizni sezdirmay, o'z dunyosiga olib kiradi. Bu poetik dunyoda hamma real narsalar o'z realligini saqlab turadi, biroq ayni choqda shoirning kechinmalari tufayli yangi sifatlar, yangi belgilar, yangi ranglar kasb etadi. Bu olamda ko'kdan quyiluvchi yomg'ir, ayni choqda, muhabbati rad qilingan oshiqning ahvoliga yig'lovchi samoning ko'z yoshlari bog'larda lov-lov yongan xazon va ayni choqda, shoir yuragidan to'kilgan olov ko'z yoshi esa – quyosh va ayni choqda, olis yoshlikda qolgan muhabbat». Demak, bunda yomg'ir tomchilari muhabbati rad etilgan oshiqning ko'z yoshlarini bildirib keladi. Yoki olimning: «Mirtemirning «Ko'k yuzida pag'a bulut oq bulut» she'rida: tasvir aniq va go'zal, unda tugal bir manzara chizilgan. Shoir shu tasvir orqali hayot nashidasini, tabiat go'zalligini ulug'laydi» – deb yozadi. O.Sharafiddinov Mirtemir satrlarida tabiat manzarasini tuyadi, bulut tasvirida hayot nashidasini his etadi. Adabiyotshunos U.Normatov Faxriyorning «Kuz yomg'iri» turkumini tahlil qilar ekan, turkumdagi:

Xazonlar ergashdi armon hayliga,
Kuz vido istadi ko'ngil mayliga,
Yomg'irlar yog'adi hijron saylida,
Kuz yomg'iri,
Hijron yomg'iri.

Kuz, xazon fasli bilan bog'liq mungli – hazin kayfiyat, betinim yog'ayotgan hijron yomg'iri, uning dardli sadosi bilan qo'shilgan g'aroyib, o'ta ma'yus, munis bir musiqiy ohangni vujudga keltiradi; kuzning ko'ngil mayliga vido istashi, buning ustiga «hijron saylida» yomg'irning savalashi she'rdagi ma'yus tuyg'u musiqasini avj pardalarga ko'taradi». Bunda kuz manzarasidagi hazin ohang yomg'ir tasviri bilan yanada ta'sirchan ruhiy holatni yuzaga keltirgan. Ya'ni olim Faxriyor satrlaridagi yomg'ir obrazini hijron yomg'iri tarzida talqin etadi. Chunki kuz hijron fasli bo'lganidan bu faslda yog'adigan yomg'ir ham shu ma'noni ifoda etgan.

Xulosa qilib aytganda, Rus adabiyotida tabiat ramzlari ko'proq lirik qahramon ruhiyatiga bilan aloqadorlikda talqin etilgan. Rus she'riyatida yomg'ir unumdorlik, ruhiy

ta'sir va poklanish ramzi bo'lib kelgan, shamol obrazi orqali Vatan urushidan oldingi va keyingi yillardagi butun mamlakatni qamrab olgan misli ko'rilmagan dahshatlar ifoda etilgan. Tabiat ramzlari romantik she'riyatni yaratish uchun asos bo'lib xizmat qilgan.

Ko'rinadiki, shamol, bulut, yomg'ir va qor singari obrazlar an'anaviydir. Bu timsollarning genezisi xalq maqollari, topishmoqlari va qo'shiqlariga borib tutashadi. Binobarin, qor mo'l hosil manbai, yomg'ir hayot, qut-baraka, to'kinchilik va xalq farovonligining ramzi, ishqda o'rtangan oshiq uchun diydor ramzi bo'lib kelgan. O'zbek mumtoz adabiyotida bu timsollar tadrijiylik kasb etgan. Jumladan, bulut osmonning qovoq solishiga, yomg'ir esa uning ko'z yoshlariga qiyoslangan; shamolning esishi, yomg'irning yog'ishi oshiq qalbida ishq paydo qilgan; bodi sabo orqali oshiq sifatleri berilgan; yomg'ir esa oshiqning ko'z yoshlarini bildirib kelgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Куронов Д., Мамажонов З. ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Akademnashr, 2010. – 398 б.
2. Ўзбек халқ мақоллари. (Тузувчилар: Т.Мирзаев, А.Мусакулов, Б.Саримсоқов; масъул муҳаррир Ш.Турдимов) – Т.: Шарқ, 2019. – 512 б.
3. Икром Искандар. Фасллар оҳанги: шеърлар. – Т.: Шарқ, 2013. – 112 б.
4. Ҳайитов А.Х. 90-йиллар ўзбек лирикасида анъана ва шаклий изланишлар. Филол. фан. номз. дисс. – Т., 2004. – 116 б.
5. Шохина Е.В. Семантика времен года в поэзии пушкинской поры. Автореф.на.соиск.учен.степень канд.филол.наук. – Воронеж, 2017. – 18 с.
6. Попова Н.С. Мифопоэтический концепт как вид когнитивной метафоры: На материале русских и немецких наименований времен года. Дисс.на соиск.учен.степ. канд.филол.наук. – Воронеж, 2000. – 227 с.
7. Қаюмов А. Шеърят жоллари. –Тошкент: Ўқитувчи, 1996 – 128 б.
8. Қаюмов. А. Ишқ водийси чечаклари. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985– 256 б.